Oʻzbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan boʻlib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va koʻllar hamda yer osti suvlaridir. Orol havzasida aholi sonining barqaror oshib borishi sugʻoriladigan dehqonchilikni muttasil rivojlantirishni talab etadi. Bu hol daryolardan koʻp miqdorda suv olinishiga olib keldi. 1960-yilga kelib Markaziy Osiyoda salkam 5 mln. gektar maydonni sugʻorish uchun 40,4 $km^3$ suv olingani holda, 1986-yil oxirida qariyib 7 mln. gektar maydonni sugʻorish uchun 86 $km^3$ suv olingan. Sugʻoriladigan maydon 40 foizga ortgan holda sugʻorish uchun sarflanadigan suv hajmi ikki baravardan ham koʻproqqa ortgan. Bu ekinlarni suv bilan ta'minlash uchun juda koʻp suv olinganligini anglatadi. Koʻp miqdordagi suvning sugʻorish va boshqa maqsadlarga sarflanishi mazkur mintaqada suv tanqisligini kuchaytira boshladi. Shu vaqtga kelib Markaziy Osiyoda yirik suv omborlari: Toʻxtogʻul, Andijon, Chorvoq, Chordara, Qayroqqum, Nurek, Janubiy Surxon, Hovuzxon, Tuyamoʻyin, Hisorak va boshqalar qurildi. Ularda koʻplab suv gʻamlab olina boshlandi. Bu hol, ayniqsa, Orol dengizi suv rejimida yanada kuchliroq sezila boshlanishi tufayli uning gidrologik xususiyatlarida oʻzgarishlar kuchaydi. Mutaxassislarning ma'lumotiga koʻra, 1911-1960-yillar davomida Orol dengiziga har yili oʻrtacha 52 $km^3$ suv quyilib kelgan va uning sathi muntazam ravishda 53 m balandlikda boʻlgan, dengiz maydoni 66 ming $km^2$, suv hajmi 1061 $km^3$ ga teng edi. Ushbu yillar mobaynida dengizga kelgan suv bilan uning suv sarfi deyarli teng boʻlgan. Orol sathining 1961 yildan boshlab pasayishi turli yillarda turlicha sodir boʻlgan. 1961-1970 yillar mobaynida pasayish oʻrtacha 21 sm, 1971-1980 yillarda 58 sm, 1981-1985 yillarda 80 sm, 1986-1995 yillarda 46 smni tashkil qildi. Ayrim yillarda suv sathining pasayishi hatto bir metrdan ham ziyod boʻlgan. Orol dengizi qurigan qismining (maydoni 3,8 mln. gektardan ortiq) tabiiy sharoiti oʻziga xos boʻlib, bu yerlar asosan barxan qumlari va tuzlar bilan band. Mamlakatimiz hukumati ushbu global ekologik muammoni hal etishga xalqaro hamjamiyatning e'tiborini qaratmoqda. Chunki mazkur ekologik muammoni yechishda mintaqadagi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning hamkorlikda harakat qilishi yuqori samara beradi.

Mamlakatimiz aholisi sonining yuqori sur'atlarda oshayotganligi, shu bilan birga sanoat korxonalari soni va ishlab chiqarish quvvatlarining koʻpayishi qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga boʻlgan talabni oshirmoqda. Ushbu talabni qondirish va mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Ayrim yillarda yogʻingarchilik miqdori kam boʻlishi natijasida suv resurslari taqchilligi kuzatilmoqda. Shu sababli mamlakatimizdagi sugʻorish tizimlarining holatini yaxshilash, mavjud suvdan oqilona foydalanish va sugʻorishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon qishloq xoʻjaligiga global iqlim oʻzgarishlarining koʻrsatayotgan salbiy ta'sirlari keyingi yillarda tobora keskinlashmoqda. Xususan, iqlim oʻzgarishi ta'sirida dunyo mamlakatlarda qurgʻoqchil hududlar kengayib, suv tanqisligi, kambagʻallik, ocharchilik va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari tobora kuchaymoqda. Shu sababli mazkur masala mamlakatimiz hukumatining diqqat e'tiborida turibdi, xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tahlil etib borilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Janubiy Koreyaning Seul shahrida videoanjuman shaklida boʻlib oʻtgan "Yashil oʻsish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" sammitidagi nutqida "... iqlim oʻzgarishlari tobora kuchayib borayotganligi, ayniqsa Markaziy Osiyo mamlakatlarida soʻnggi 30 yil ichida oʻrtacha yillik harorat $1^0$C darajaga koʻtarilganligi hamda mintaqamizda asosiy daryolarning havzalari va biologik xilma-xillik tobora qisqarib borayotganligi"ni ta'kidladi[1].

Iqlim oʻzgarishlari va uning qishloq xoʻjaligiga tasiri bir qator Sommer, Gupta, Charles, Hossain, Aleksandrova, Stefanie Christman, Donna Mitchell va Schierhorn kabi xorijiy olimlarning ishlarida keng qamrovda oʻrganilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida iqlim oʻzgarishining qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi, fermer va dehqon xoʻjaliklari daromadlari, oziq-ovqat xavfsizligi hamda suv resurslariga ta'sirlari soʻrovnoma, panel hamda davriy qatorli malumotlar asosida oʻrganilgan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida keng qamrovda tadqiq etilgan. Mamlakatimiz olimlaridan qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga va mavjud suv resurslariga iqlim omillari

1 https://president.uz/uz/lists/view/4385

o‘zgarishining tasiri I.Bobojonov, A.Mirzabayev, A.Hamidov, R.Hakimov, Sh.Muxamedjanov, Sh.G‘afforovlar[2] ning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Sh.B.Babaxolov esa o‘z ilmiy tadqiqotlarida iqlim omillari o‘zgarishining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ta’siri hamda adaptatsiya jarayonlarini iqtisodiy baholashga e’tibor qaratgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning usullari sifatida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, retrospektiv, miqdoriy, tizimli, qiyosiy tahlillar, statistik guruhlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda sug‘oriladigan yerlar maydoni 4,2 mln. gektardan ortiq bo‘lib, jami suv resurslarining 90-91 foizi qishloq xo‘jaligida, 4,5 foizi kommunal-maishiy xo‘jalik sohalarida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,5 foizi issiqlik energetikasida, 1 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalaniladi.

O‘zbekiston hududini ikkita yirik daryo: Amudaryo va Sirdaryo kesib o‘tadi, ularning suv olish havzalari Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizimi tog‘larida joylashgan.

Jahon qishloq xo‘jaligiga global iqlim o‘zgarishlarining ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirlari keyingi yillarda tobora keskinlashmoqda. Xususan, iqlim o‘zgarishi ta’sirida dunyo mamlakatlarida qurg‘oqchil hududlar kengayib, suv tanqisligi, kambag‘allik, ocharchilik va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari tobora kuchaymoqda. Yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda.

Iqlim o‘zgarishi muammosi qatoriga yog‘ingarchiliklarning bir maromda emasligi, gohida qurg‘oqchilik bo‘lishi, gohida esa birdan yog‘ingarchiliklar ko‘payib hududlarni suv bosishi ham kiradi. Agar issiqxona gazlarining tarqalishi to‘xtamasa, olimlar Yer sayyorasi o‘rtacha haroratining 4 °C ga oshishini prognoz qilishmoqda. Bu esa quruqlikning katta qismini inson hayoti uchun yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘zining tabiiy-iqlim sharoitlariga ko‘ra iqlim o‘zgarishlariga o‘ta ta’sirchan mintaqa hisoblanadi. Mutaxassislarning tadqiqotlariga ko‘ra, harorat $2^0$Cga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, $4^0$Cga isiganda esa 78 foizga kamayadi. Markaziy Osiyoda so‘nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. O‘zbekistonda Atrof-muhit holati to‘g‘risidagi Milliy hisobot e’lon qilindi. Unda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda muzliklar maydoni 30 foizga qisqargan va har yili 0,3-0,6 foizga qisqarishda davom etmoqda. O‘zbekistonda shu asrning boshlarida jami 525 ta muzlik mavjud bo‘lib, ularning umumiy maydoni 154,2 km$^2$. Aksariyat muzliklar maydoni kichik va juda tez yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. O‘rtacha yillik harorat 1880-yilda instrumental meteorologik kuzatuvlar boshlanganidan beri 1,6 darajaga ko‘tarildi (13,2 dan 14,8 gacha)[3].

Tojikistondagi muzliklar mamlakat hududining 6 foizini egallaydi va aynan ular deyarli butun Markaziy Osiyoni chuchuk suv bilan ta’minlaydi. Muzliklar Tojikiston tog‘larida joylashgan. Ularning umumiy maydoni 8476 kvadrat kilometrdan oshadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi, ayniqsa, issiqlik ta’siri natijasida muzliklarning erishi tezlashgan va har yili ushbu muzliklar 1,3 kvadrat kilometrga kamaymoqda.

Hozirgi vaqtda davom etayotgan global isish natijasida mavjud muzliklarning erib ketishi suv resurslari hajmini qisqartirmoqda. Masalan, O‘zbekiston tomonidan foydalanilayotgan suvning yillik hajmi so‘nggi yillarda o‘rtacha yillik 51-53 km$^3$ni tashkil qiladi, bu esa o‘tgan asrning 80-yillariga taqqoslaganda 20 foizga kamdir. Shu bilan birga, mamlakatimiz aholisi ushbu muddat ichida deyarli 2 baravar o‘sgan. So‘nggi yillardagi iqlim o‘zgarishlari mintaqaning irrigatsiya tizimi, suv resurslari va qishloq xo‘jaligiga jiddiy muammolar tug‘dirmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2050-yilgacha suv resursi Sirdaryo havzasida 5 foizga, Amudaryo havzasida esa 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. O‘zbekistonda 2015-yilgacha bo‘lgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 km$^3$dan ortiqni tashkil qilgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 7 km$^3$ni, 2050-yilga borib esa 15 km$^3$ni tashkil qilishi mumkin. Jahon resurslari institutining prognoziga ko‘ra, 2040-yilga borib O‘zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo‘lgan 33 ta mamlakatning biriga aylanadi.

Global iqlim o‘zgarishlari ta’sirida O‘zbekistonda suv tanqisligi yildan-yilga ko‘proq sezilmoqda. Bunga bir tomondan, aholi sonining ko‘payishi, boshqa tomondan, iqlim o‘zgarishining oqibatlari, xususan, suv tanqisligi va qurg‘oqchilikning kuchayishi ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimiz suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi. Mazkur holat Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini barqaror boshqarish uchun mintaqaviy hamkorlikning muhimligini belgilaydi. Hozirda asosiy vazifa qo‘shni davlatlar bilan suvdan

2 Bobojonov, Ihtiyor, & Aw-Hassan, A. (2014). Impacts of climate change on farm income security in Central Asia: An integrated modeling approach. Agriculture, Ecosystems and Environment, 188, 245–255.; Gafforov, K. S., Bao, A., Rakhimov, S., Liu, T., Abdullaev, F., Jiang, L., ... & Mukanov, Y. (2020). The assessment of climate change on rainfall-runoff erosivity in the Chirchik–Akhangaran Basin, Uzbekistan. Sustainability, 12(8), 3369.; Mukhamedjanov, S., Mukhomedjanov, A., Sagdullaev, R., & Khasanova, N. (2021). Adaptation to climate change in irrigated agriculture in Uzbekistan. Irrigation and Drainage, 70(1), 169-176.

3 https://meteojurnal.ru

foydalanish bo'yicha shartnomalarni imzolash zarur. Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi (DSXMK) faoliyat olib bormoqda. Uning asosiy vazifasi Amudaryo va Sirdaryoni samarali boshqarishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Keyingi yillarda transchegaraviy daryolar yuqori oqimida joylashgan davlatlarda suv inshootlarining qurilishi, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi iste'moli uchun suvga bo'lgan talabning ortishi natijasida quyi oqimda joylashgan davlatlarda suv yetishmovchiligi muammolari yuzaga kelmoqda. Suv bo'yicha muammolar hamkorlikda yechilmas ekan, Markaziy Osiyoda barqarorlik bo'lmaydi.

Amudaryo va Sirdaryo daryolari transchegaraviy daryolar bo'lib, ularning suvidan qo'shni respublikalar ham foydalanadi (1-jadval).

1-jadval. 2023-yilda Amudaryo havzasi mamlakatlari bo'yicha suv iste'moli (million $m^3$).

| Yil oylari | Turkmaniston | % | O'zbekiston | % | Tojikiston | % | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 560,5 | 46,9 | 349 | 29,2 | 285,6 | 23,9 | 1195,1 |
| Fevral | 983,7 | 37,9 | 1352,2 | 52,1 | 259,5 | 10 | 2595,4 |
| Mart | 1942,3 | 42,4 | 2166,7 | 47,3 | 471,8 | 10,3 | 4580,8 |
| Aprel | 1762,7 | 45,9 | 1132,9 | 29,5 | 944,7 | 24,6 | 3840,3 |
| May | 1949,8 | 42,2 | 1557 | 33,7 | 1113,5 | 24,1 | 4620,3 |
| Iyun | 2327 | 41,1 | 2174,2 | 38,4 | 1160,7 | 20,5 | 5661,9 |
| Iyul | 2936,5 | 39,5 | 3211,6 | 43,2 | 1286,1 | 17,3 | 7434,2 |
| Avgust | 2876,6 | 41,8 | 2752,7 | 40 | 1252,4 | 18,2 | 6881,7 |
| Sentyabr | 2114,5 | 44,5 | 1610,8 | 33,9 | 1026,4 | 21,6 | 4751,7 |
| Oktyabr | 1167,1 | 44,2 | 771,1 | 29,2 | 702,4 | 26,6 | 2640,6 |
| Noyabr | 687,7 | 37,9 | 631,5 | 34,8 | 495,4 | 27,3 | 1814,6 |
| Dekabr | 607,4 | 38,8 | 537 | 34,3 | 421,1 | 26,9 | 1565,5 |
| Yillik | 19915,8 | 41,9 | 18246,7 | 38,4 | 9419,6 | 19,8 | 47582,1 |

Manba: Markaziy Osiyo davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi qoshidagi ilmiy-axborot markazi ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Amudaryodan Afg'onistonni hisobga olmaganda uchta mamlakat taxminan 47,58 km kub suv olgan. 2023-yilda Amudaryo suvidan eng ko'p foydalangan mamlakat Turkmaniston bo'lgan. Ushbu mamalkat Amudaryo suvining 41,9 foizini ishlatgan. Bu qariyb 20 km kub suv demakdir. O'zbekiston esa Amudaryoning 38,4 foiz (taxminan 18,3 km kub), Tojikiston esa 19,8 foiz (taxminan 9,4 km kub) suvidan foydalangan. Oylar kesimida ham Turkmaniston Amudaryodan eng ko'p foydalanuvchi bo'lgan. Faqat fevral, mart va iyul oylarida O'zbekiston Turkmanistonga nisbatan Amudaryodan ko'proq suv olgan. Amudaryo havzasidagi davlatlar orasida Turkmaniston suvdan samarasiz foydalanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Aholi soni to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlardan kelib chiqilsa, Turkmanistonda 2023-yilda Amudaryodan suv olish aholi jon boshiga 6741,7 metr kubni tashkil qilgan. Afg'onistonning suv sarfi haqidagi ma'lumotlar mavjud emasligi sababli ushbu tahlillarga kiritilmagan. Kelgusida Afg'oniston ham Amudaryo suvidan faol foydalanuvchilar qatoriga qo'shilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonning taklifiga binoan 2023-yil 15-sentyabr kuni Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi. Ushbu uchrashuvda O'zbekiston prezidenti Qo'shtepa kanali qurilishi bo'yicha ham o'z fikrini bildirdi. Prezidentimiz Qo'shtepa kanalining qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta'siri bilan bog'liq barcha jihatlarni mamlakatlarimizdagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda o'rganish bo'yicha Qo'shma ishchi guruhini shakllantirish zarurligini ta'kidlab, Afg'oniston vakillarini suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqaviy muloqotga jalb etish masalasini ko'rib chiqishni taklif etdi.

Mamlakatimizda suv iste'molchilari uyushmalari va fermer xo'jaliklarining 77 foiz sug'orish tarmog'i tuproq o'zanli bo'lib, 44 foiz tarmoq ta'mirlash va tiklashga, 10 foiz tarmoq esa rekonstruksiya qilishga muhtoj. Mavjud lotok tarmoqlarining asosiy qismi 30 yildan ziyod xizmat ko'rsatib ularni o'z vaqtida ta'mirlash ishlari amalga

oshirilmaganligi, shuningdek, xizmat muddatlarini oʻtib ketganligi natijasida ularning 70 foizi rekonstruksiya qilish va almashtirishni talab qiladi. Suv isteʼmolchilarining suv olish joylari esa aksariyat holda suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlanmagan.

Natijada irrigatsiya tizimi va sugʻorish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti oʻrtacha 0,64, bir qator hududlarda esa undan ham past boʻlib, asosiy manbalardan olinadigan suvning 35-40 foizi sugʻorish tarmoqlarida yoʻqotilmoqda.

Demak, mamlakatimiz miqyosida 36 foiz suv sugʻorish tizimlarida isrof boʻlmoqda, ularning asosiy qismi yerga singib ketadi. Agar xoʻjaliklar ichidagi sugʻorish tarmoqlarining oʻzanlarini suv oʻtkazmaydigan material bilan qoplashga erishilsa, ularning foydali taʼsir koeffitsiyentini 0,85 gacha yetkazish mumkin boʻladi. Bu ancha suvni tejashga imkon beradi. Ushbu tejalgan suvlardan foydalanish orqali sugʻoriladigan yerlar maydonini koʻpaytirish imkoni vujudga keladi. Shu sababli sugʻorish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim.

2023-yil 29-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xoʻjaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yoʻqotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yigʻilishi oʻtkazdi. Yigʻilishda qayd qilinishicha, iqlim oʻzgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish boʻyicha vaziyat ham jiddiy. Bularning taʼsirida 2030-yilga borib Oʻzbekistonda suv tanqisligi 15 milliard kub metrga yetishi prognoz qilinayotganligi taʼkidlandi. Prezidentimiz suvni tejash boʻyicha favqulodda ish tizimiga oʻtilishini taʼkidladi va bunda quyidagilarga eʼtibor berish lozimligi koʻrsatib oʻtildi:

Birinchi muhim vazifa – kanal va ariqlarni betonlash. Hisob-kitoblarga koʻra, 2022-yilda Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligida 39 milliard kub metr suv sarflangan. Shundan 36 foizi, yaʼni 14 milliard kub metrdan ortigʻi tuproq oʻzanli kanal va ariqlarda yoʻqolgan. Eng koʻp suv yoʻqotishlari Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Namangan, Navoiy, Xorazm va Buxoro viloyatlariga toʻgʻri keladi. Kanallarning oxirida joylashgan 175 ming gektar ekin maydonida suv taʼminoti juda ogʻir. Shu bois suv xoʻjaligida “kanallarni betonlash boʻyicha zarbdor yil” eʼlon qilindi. 2024-yilda 1500 kilometr, 2023-yilgiga nisbatan 4 barobar koʻp yirik kanallarni betonlash, 2025-yildan boshlab kamida 2 ming kilometrdan kanallarni betonlash vazifasi belgilandi. Viloyat va tuman hokimlariga bir yil ichida 3 ming 500 kilometr ichki tarmoqlarni beton qoplamaga oʻtkazish topshirildi. Bundan manfaatdor klaster va fermerlarga maxsus texnika va qurilish materiallaridan yordamlashib, xarajatlarni 2 karra kamaytirish mumkinligi aytildi.

Ikkinchi muhim vazifa – suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish. Yigʻilishda bu boʻyicha yangicha moliyalashtirish tizimi belgilandi. Unga koʻra, klaster va fermerlarga suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun ikki yillik imtiyozli davr bilan besh yilga 14 foizli kredit ajratiladi. Buning uchun ochiq-oshkora platforma ishga tushiriladi. Ham bank bilan, ham taʼminotchilar bilan shartnoma elektron platforma orqali onlayn imzolanadi. Mutasaddilarga buning moliyaviy-tashkiliy jihatlari boʻyicha koʻrsatmalar berildi. Suv tejash joriy etilgan maydonlarni har yili kengaytirib borish, Turkiya, Ispaniya va Xitoyning bu boʻyicha tajribasini oʻrganish muhimligi taʼkidlandi. Kelgusi uch yilda ham qishloq xoʻjaligi texnikasining 15 foizi va lazerli tekislagichning 30 foizini subsidiyalash amaliyoti davom ettiriladi. 2026-yilgacha hamma ekin yerlari lazerli tekislanadi. 2026-yildan keyin lazerli tekislanmagan yerlarga nisbatan yer va suv soliqlari keskin oshiriladi.

Erishilgan natijalarni tahlil etadigan boʻlsak, 2024-yilda 326 ming gektar maydonda suvni tejovchi texnologiyalar, jumladan, 82,7 ming gektar maydonda tomchilatib sugʻorish, 39 ming gektar maydonda yomgʻirli sugʻorish, 30,6 ming gektar maydonda diskret sugʻorish, 174 ming gektar maydonda egiluvchan quvurlar orqali sugʻorish joriy etildi. Lazer uskunalari yordamida 507 ming gektar maydon tekislandi. Agar 2017-yilda suvni tejovchi texnologiyalar bilan qoplangan maydonlar 28 ming gektarni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda tomchilatib sugʻorish joriy etilgan maydonlarni hisobga olgan holda 1,9 million gektarni tashkil etib, 561 ming gektarga yetdi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijasida joriy yilda ikki milliard kub metr suvni tejashga erishdik.

Uchinchi muhim vazifa – suvni yetkazish xarajatlarini qisqartirish. Qayd qilinishicha, bugungi kunda klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har 1 $m^3$ suvga oʻrtacha 212 soʻm xarajat qilinayapti. Lekin Buxoro, Qashqadaryo va Namanganda bu 2-3 barobar qimmat. Shu bilan birga, suv xarajatining 63 foizi nasos stansiyalari hissasiga toʻgʻri keladi. Xususan, sugʻorish uchun yiliga 7 milliard kilovatt soat elektr energiyasi sarflanadi. Chunki suv nasoslarining 80 foizi eskirgan, energiya sarfi yuqori. Prezidentimiz bu xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishning eng toʻgʻri yoʻli – nasoslarni modernizatsiya qilish va ularni boshqarishni xususiy sheriklikka berish ekanini taʼkidladi. Bu borada ishlarni jadallashtirib, xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokida 95 ta nasos stansiyasini yangilash, kelgusi yil boshida yana 118 tasi boʻyicha tender eʼlon qilish vazifasi qoʻyildi. Shu bilan birga, xorijiy kompaniyalar 268 ta nasosni boshqaruvga olish tashabbusini bildirgan. Ushbu choralar orqali kelgusi yili nasoslarning elektr sarfini 300 million kilovatt soatga, keyingi uch yilda esa 1,5 milliard kilovatt soatga kamaytirish mumkinligi koʻrsatib oʻtildi. Suv xoʻjaligi vazirligiga xalqaro moliya tashkilotlari bilan birga, nasoslarni modernizatsiya qilish boʻyicha uch yillik dastur ishlab chiqish topshirildi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yogʻingarchilik miqdori kamayishi munosabati bilan suv resurslari tanqisligi sezilmoqda. Shu sababli respublikamiz hukumati tomonidan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va suv resurslaridan foydalanishning zamonaviy, tejamli usullaridan foydalanishga eʼtibor

kuchaytirilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi yerlarining samaradorligini, jumladan suvni tejaydigan texnologiyalarni qo'llagan holda, oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, suvni tejaydigan sug'orish tizimlarini ishlab chiqarish, yetkazib berish, xarid qilish, joylarda loyihalashtirish va o'rnatishdagi kamchiliklar hamda ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning bu boradagi ko'nikmalari yetarli emasligi mazkur texnologiyalarning o'z vaqtidan kechikib joriy qilinishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli farmoni asosida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"da 2030-yilgacha mamlakatimizda 1 gektar maydonni sug'orish uchun ishlatiladigan suv sarfini 20 foizga kamaytirish hamda suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar va xaridorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

2020-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4919-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini hamda yerni lazerli uskuna yordamida tekislangan holda diskretli sug'orish usulini joriy qilish sur'ati besh barobarga oshirilishi belgilangan. Shunga ko'ra, 2021-yilda respublika bo'yicha jami 430 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilinadi. Shundan sug'oriladigan 200 ming gektar maydonni lazerli uskuna yordamida tekislash orqali suvdan foydalanish samaradorligi oshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanish sohasidagi asosiy muammolardan biri – qishloq xo'jaligi korxonalarida foydalanilgan suvning hisobi yuritilmayotganligi va buning natijasida suv resursidan foydalanganlik uchun to'lovning aniq hisob-kitobga asoslanmagan holda amalga oshirilmayotganligidir. 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksining 444-moddasiga ko'ra, qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish sohasidagi vakolatli organ (Suv xo'jaligi vazirligi) tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste'molining normativlariga ko'ra aniqlanadi. Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq, qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni o'stirish (yetishtirish) uchun foydalanilgan suv hajmi qismi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari yer osti manbalari va yer usti manbalaridan olingan 1 kub metr suv uchun soliq stavkasi 2020-yilda 40 so'm etib belgilangan, bu stavka 2021-yilda ham o'zgarishsiz qoldirilgan, 2024-yil holatiga esa 100 so'm etib belgilangan va bu stavka 2025-yilda ham o'zgarishsiz qoldirilgan. Suv uchun to'lovning arzon ekanligi undan foydalanish samarasiga salbiy ta'sir etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 17-18-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda suv masalasiga ham to'xtaldi va "Suv tekin emas", degan g'oyani aholiga chuqur singdirish, uni mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va keng jamoatchilik bilan birga kundalik turmush qoidasiga aylantirish asosiy vazifa bo'lishi lozim", – dedi prezident[4].

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismida foydalanilgan suvni o'lchash asboblari mavjud emas. Bu esa suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish sohasidagi vakolatli organ (Suv xo'jaligi vazirligi) tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste'molining normativlariga ko'ra aniqlanishini anglatadi. Odatda, bunday vaziyatlarda suvdan foydalanishning holati yaxshi bo'lmaydi. Chunki, suvdan foydalanuvchilar o'zlari foydalangan suvning miqdoridan kelib chiqib haq to'lasalar, suvdan tejab foydalanishga harakat qiladilar. Yil sayin tanqis bo'lib borayotgan suv resursidan tejab foydalanishni yo'lga qo'yish uchun qishloq xo'jaligi tarmog'ida imkon qadar tezroq suv o'lchash asboblarini o'rnatishga erishish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, suv resurslaridan to'liq va samarali foydalanish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- suv xo'jaligining huquqiy asoslari va normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirib borish;
- xo'jaliklararo va ichki xo'jalik sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish;
- suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari ko'lamini kengaytirish, innovatsiyalar, ilmiy yutuqlar va nou-xaularni joriy qilish;
- suv resurslarini boshqarish sohasida bozor mexanizmlarini joriy etish;
- zamonaviy suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarining joriy qilinishini yanada kengaytirish va davlat tomonidan rag'batlantirib borish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish;
- suv xo'jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun "aqlli" texnologiyalar tizimini joriy etish

4 https://kun.uz/uz/news/2023/11/17/prezident-suv-tekin-emas-degan-goyani-aholiga-chuqur-singdirish-lozim

- yerlarni lazerli tekislashni yanada kengaytirish orqali suv isrofgarchiligining oldini olish;
- suv xo‘jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yo‘lga qo‘yish va hokazo.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2020-y. 06/20/6024/1063-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019-y., 06/19/5853/3955-son; 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.
3. Murtazayev O., Ahrorov F.B. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “ILM ZIYO”, 2017. -415 b.
4. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. -404 b.
5. Babaxolov Sh.B. “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga iqlim o‘zgarishining ta’siri va adaptatsiya jarayonlarini iqtisodiy baholash” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi aftoreferati. Toshkent, 52 b.
6. https://agroworld.uz/uz/news/the-main-task-of-water-management-is-water-use-efficiency

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 11**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz